

SHAXSNING HUQUQIY MAQOMI (TENG HUQUQLILIK VA GENDER TENGLIK)

Iminova Dilbarxon Mannabovna,

Andijon davlat universiteti

Huquq va ma'naviyat asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur ishda shaxsning huquqiy maqomi tushunchasi, uning asosiy elementlari hamda jamiyatdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, teng huquqlilik prinsipi va gender tenglik masalalari huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda davlatning roli, erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng imkoniyatlarni yaratish zarurati ko'rib chiqiladi. Gender tenglikka erishish jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy adolat va demokratik tamoyillarni mustahkamlashning muhim omili sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: shaxsning huquqiy maqomi, inson huquqlari, teng huquqlilik, gender tenglik, ijtimoiy adolat, huquqiy davlat, erkinliklar, diskriminatsiya, demokratik jamiyat, teng imkoniyatlar.

Аннотация. В данной работе раскрывается понятие правового статуса личности, его основные элементы и роль в обществе. Также с правовой точки зрения анализируются принцип равноправия и вопросы гендерного равенства. Рассматривается роль государства в обеспечении прав и свобод человека, а также необходимость создания равных возможностей для мужчин и женщин. Достижение гендерного равенства оценивается как важный фактор устойчивого развития общества, укрепления социальной справедливости и демократических принципов.

Ключевые слова: правовой статус личности, права человека, равноправие, гендерное равенство, социальная справедливость, правовое государство, свободы, дискриминация, демократическое общество, равные возможности.

Abstract. This paper explores the concept of an individual's legal status, its fundamental elements, and its role in society. It also provides a legal analysis of the principle of equal rights and issues of gender equality. The role of the state in ensuring human rights and freedoms and the necessity of creating equal opportunities for men and women are examined. Achieving gender equality is assessed as a crucial factor for the sustainable development of society and for strengthening social justice and democratic principles.

Keywords: legal status of the individual, human rights, equal rights, gender equality, social justice, rule of law, freedoms, discrimination, democratic society, equal opportunities.

Kirish. Barchamizga ma'lumki "FUQAROLIK" shaxsning ma'lum bir davlat bilan mustahkam siyosiy-huquqiy bog'lanishidir. Aynan har bitta shaxs dunyoga kelar ekan, ma'lum bir davlatning fuqaroligini oladi. Hozirgi kunda ham jahon amaliyotida fuqarolikning tug'ilish bo'yicha vujudga kelishida 2 ta asosiy ko'rinishi bor bo'lib, bular: "qondoshlik huquqi", "tuproqdoshlik huquqi"dir. Birinchi holatda, ya'ni "qondoshlik huquqi"da bola tug'ilgan joyidan qat'iy nazar, otaonasining fuqaroligini oladi. Ikkinchi holatda esa bola ota-onasining fuqaroligidan qat'iy nazar, qaysi davlatda tug'ilgan bo'lsa, o'sha davlat fuqarosi bo'ladi. O'zbekistonda esa har ikkala holat ham tan olinadi. Buning asosi esa, - "Fuqarolik to'g'risidagi" qonunda o'z aksini topgandir. O'zbekiston fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxs O'zbekistonda tug'ilgan bo'lsa yoki otaonasidan biri buvasi yoki buvisi O'zbekistonda tug'ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa unga nisbatan O'zbekistonda 3 yil yashagan bo'lishi degan qoida tatbiq qilinmaydi.

Adabiyotlar tahlili. Shaxsning huquqiy maqomi hamda teng huquqlilik va gender tenglik masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar konstitutsiyaviy huquq, inson huquqlari nazariyasi va gender siyosati doirasida keng yoritilgan. Xususan, O.T. Xusabovning "O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi" asarida shaxsning huquqiy maqomi, fuqarolik institutining huquqiy asoslari hamda konstitutsiyaviy kafolatlar tizimi chuqur tahlil qilingan. Bradley va Ewing, Chemerinsky hamda May va Ides kabi xorijiy olimlarning ishlari esa shaxs huquqlarining xalqaro-huquqiy asoslari, tenglik prinsipi va demokratik davlatlarda inson huquqlarini ta'minlash mexanizmlarini yoritib beradi. Sherman tadqiqotida esa ijtimoiy-siyosiy tizimlar o'zgarishi kontekstida huquqiy institutlarning transformatsiyasi tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tizimli-tahliliy va normativ yondashuvlardan foydalanildi. Qiyosiy metod orqali milliy va xalqaro huquqiy manbalar asosida shaxsning huquqiy maqomi va gender tenglik prinsiplari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar o'rganildi. Tizimli-tahliliy yondashuv orqali konstitutsiyaviy normalar, qonunlar va xalqaro hujjatlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Normativ metod esa amaldagi huquqiy hujjatlar asosida teng huquqlilik va gender tenglikni ta'minlash mexanizmlarini yoritishda qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Vaqt o'tib borgani sayin rivojlanish, yuksalish yuz bermoqda. Bunday o'zgarishlar, yangiliklar qonun hujjatlarini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Qonun hujjatlari ham davr talabiga javob beradigan, davlatning uzoqni o'ylab amalga oshirayotgan rejalarini rivojlanishi uchun ko'maklashadigan darajada o'zgarishlarga uchramoqda. Muhokama aynan O'zbekiston Respublikasi - Fuqarolik to'g'risidagi qonunga ham ayrim o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, 2020-yilning 13-mart kuni aynan ushbu qonun imzolanib oradan 6 oy o'tgach kuchga kirishi belgilangan edi. Qonundagi bunday o'zgarish 2020-yilning 15-sentabridan boshlab kuchga kirdi. Qonunga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishning quyidagi turlari mavjud: umumiy tartib; -soddalashtirilgan tartib; -alohida tartib. Mazkur qonunda avvalgisidan farqli o'laroq - Vatandoshl degan tushuncha kiritilgan bo'lib, unga ko'ra chet davlat fuqarosi bo'lgan yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs hisoblangan vatandoshga nisbatan O'zbekiston fuqaroligiga umumiy tartibda qabul qilishning asosiy shartlaridan biri sifatida ariza topshirgan shaxsning - davlat tilini muloqot qilish uchun zarur darajada bilishi ham kiritilgan. Bu esa Konstitutsiyamizning 4-moddasiga ko'ra - O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va e'latlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi degan qoidaning amaldagi isboti ekanligini, hamda davlat tiliga bo'lgan hurmatni ham yaqqol namoyon qilmoqda desak adshmagan bo'lamiz. Bundan tashqari qonunda O'zbekiston fuqaroligiga alohida tartibda qabul qilish, fuqarolikni tiklash va tugatish, fuqarolikdan chiqish hamda fuqarolikni yo'qotish asoslari ham belgilab qo'yilgan. **O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi qiyidagi hollarda olinadi:**

1. Tug'ilganda;
2. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida;
3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha;
4. Fuqarolik to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.

Ushbu qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Konstitutsiyamizning 6 bobi ham aynan - Fuqarolik deb nomlangan bo'lib, unda quyidagi qoidalar mustahkamlangan: O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'iy nazar hamma uchun tengdir. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

Shaxsning huquqiy holati (O'zR)da - shaxsning jamiyat, davlat va boshqalar shaxslar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlardagi real ahvolini ko'rsatuvchi holati. U shaxsning yuridik jihatdan mustahkamlab qo'yilgan va jamiyatda tutgan o'rnini belgilaydigan huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari yig'indisidir. Shaxsning huquqiy holatini. Konstitutsiya va unga muvofiq chiqarilgan boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bo'limi inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. O'zbekistonda Shaxsning huquqiy holatini. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga to'la mos keladi.

Shaxsning huquqiy holatini o'rnatuvchi huquqiy normalar: huquqiy layoqat, asosiy huquq va majburiyatlar; qonuniy manfaatlar; fuqarolik; yuridik javobgarlik; huquqiy tamoyillar; umumiy xarakterdagi huquqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shaxsning huquqiy holatini. asosini konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlar tashkil etadi. Shaxsning huquqiy holatini. quyidagi turlarga ajratiladi: fuqaroning umumiy yoki konstitutsiyaviy huquqiy holati; shaxsning maxsus huquqiy holati, fuqarolarning alohida kategoriyalari huquqiy holati; jismoniy va yuridik shaxslar huquqiy holati; chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoki ikki fuqarolikka ega shaxslar hamda qochqinlarning huquqiy holati; xorijiy mamlakatlarda yashayotgan O'zbekiston fuqarolari huquqiy holati; tarmoqqa oid, ya'ni fuqarolikhuquqiy, ma'muriyhuquqiy Shaxsning huquqiy holatini.; kasbi va mansabiga bog'liq holda (vazir, deputat va shahrik.larning) shaxslarning huquqiy holati; alohida sharoitlarda, alohida hududlarda (Orol bo'yi, baland tog' sharoitida, zararli ob'yektlarda) ishlayotgan shaxslarning huquqiy holati.

Shaxsning umumiy huquqiy holati - bu insonning muayyan davlat fuqarosi va jamiyatning a'zosi sifatidagi huquqiy holatidir. Umumiy huquqiy holat Konstitutsiya bilan belgilanadi va barcha uchun bir xil va yagona hisoblanib, u nisbatan barqaror va umumiy shaklda amal qiladi. Shaxsning umumiy huquqiy holatining mazmuni asosini Konstitutsiyada hammaga va har bir kishiga berilgan va kafolatlangan huquq va

majburiyatlar tashkil etadi. Shaxsning umumiy huquqiy holati huquqiy holatning boshqa turlari uchun asos va poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxsning maxsus huquqiy holati - fuqarolarning alohida kategoriyalari (qatlamlari) huquqiy holati xususiyatlarini o‘zida ifodalaydi (talabalar, harbiylar, nafaqaxo‘rlar, o‘qituvchilar, nogironlar, urush qatnashchilari va shahrik.). Maxsus huquqiy holat egalari umumiy konstitutsiyaviy huquqiy holatga asoslangan holda, qo‘shimcha huquq va majburiyatlarga, imtiyoz va xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Shaxsning individual huquqiy holati - alohida bir shaxsning mavjud jihatlari (yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, xizmat vazifasi va shahrik.)ni belgilaydi va u har bir shaxsga tegishli bo‘lgan aniq huquq va majburiyatlardan iboratdir. Individual huquqiy holat inson hayotida ro‘y beradigan o‘zgarishlarga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Umumiy, maxsus va individual huquqiy holatlar o‘zaro bog‘liq. Umumiy huquqiy holat hammada bir xil; maxsus huquqiy holatlar bir qancha bo‘ladi, shuningdek, fuqaro qancha bo‘lsa shuncha individual huquqiy holat mavjuddir. Shaxsning huquqiy holatining barcha turlari umumiy huquqiy holatga zid kelmasligi kerak.

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tarmoqlarini demokratlashtirish yo‘liga o‘tdi. Jahon tajribasidan ma‘lumki, shaxsning asosiy huquq hamda erkinliklarini qat‘iy himoya qilmasdan va amalda ta‘minlamasdan turib, jamiyatni demokratlashtirish mumkin emas. Xalqimizning boy ma‘naviy salohiyati, uning tasarrufida bo‘lmish ulkan tabiiy boyliklar va texnikaviy imkoniyatlar, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalar demokratik rivojlanish hamda inson huquqlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni bosqichma-bosqich yaratish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklari borasida BMT ning 1948 yilda qabul qilingan - Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasillifodasini topgan qoidalarni yahlit mushtaraklikda mujassamlashtirib olgan.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsipiga mos bo‘lishi shart.

Inson huquqlari jahonda yetakchi maqomga ega. Har qanday rivojlangan demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda inson huquqlari roliga yetarli baho bermaslik mumkin emas. Asosiy huquq va erkinliklarning rag‘batlantirilishi hamda himoyalaniishi yanada muhimrog‘i, k jamiyatda har bir inson huquqlari kafolatlarining amaldagi tizimining tashkil etilishi huquqiy davlat qurishning bosh sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining ichki va tashqi siyosatida BMT ning ikkinchi Umumjahon konferensiyasida 1993-yili tasdiqlangan — Inson huquq va erkinliklarining universalligil talablariga qat‘iy rioya etib, ular himoyasi barcha davlatlarni qonuniy

ravishda tashvishlantirib turuvchi muammo ekanligi haqiqatidan kelib chiqadi. Bugun jahonda 300 dan ortiq hujjat inson va fuqarolar huquqi sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar tizimini tashkil etadi. Ularning aksariyatini BMT ning xalqaro-huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

Universal maqomdagi hujjatlardan tashqari, inson huquqlarini ta'minlash va himoyalashning mintaqaviy tizimlari faol shakillantirmoqda.

Bugungi kunda Evropa, Amerika va Afrika tizimlari mintaqada inson huquqlarini ta'minlashning ko'proq rivojlangan tizimi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hozir inson huquq va erkinliklarini himoyalash sohasidagi 60 dan ortiq xalqaro-huquqiy hujjatlarga qo'shilgan.

Inson huquqlari-inson shaxsi va turmushining tarkibiy qismi. Odatda, inson huquqlarining uch bo'g'ini bir-biridan farqlanadi: fuqarolik va siyosiy huquqlari; yashash huquqi, qiynoqqa solishning, adolatli sudlov huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, fikr va so'z erkinligi huquqi, uyushmalarga birlashish huquqi va boshqalar; iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar; bilim olish huquqi, mehnat qilish huquqi, ijtimoiy ta'minot olish huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va uchinchi bo'g'in huquqi, deb ataluvchilar (tinchlikda bo'lgan huquq, rivojlanishga bo'lgan huquq va h. k).

Mazkur qoida O'zbekiston qonun hujjatlarining butun bir tizimida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra; fuqarolarning faqat ayrim qatlamlari-nafaqa oluvchilar, nogironlar, talabalar, bolalar, urush va mehnat faxriylariga qonunga binoan biror-bir imtiyozlar berilishi mumkin. Belgilangan imtiyozlar ijtimoiy adolat va qonun oldida tenglik prinsiplariga asoslanishi darkor. Jamiyatda shaxsning tutgan o'rni, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari hamda burchlari konstitutsiyaviy huquq normalarida o'z ifodasini topqdi. Inson va jamiyat, shaxs va davlat munosabatlaridagi qator muammolar yechimini topishda, avvalambor huququy holatiga qanchalik yondashilganligi katta ahamiyatga ega. Shaxsning huquqiy holatining asoslari, uning tarkibiy qismlari har bir taraqqiy etgan mamlakatlar konstitutsiyalari, konstitutsiyaviy qonunlari va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan.

Har bir shaxs jamiyat a'zosi sifatida namoyon bo'lar ekan, shu jamiyat va uning a'zolari oldida ma'lum mas'uliyatlarni o'z bo'yniga oladi. Chunki shu jamiyat a'zosi sifatidagina u ma'lum mavqeiga ega ekan, shu sababli jamiyatning faol a'zosiga aylanishi lozim.

Jamiyat o'z navbatida davlat bilan ham ma'lum munosabatlar o'rnatadiki, bunday munosabatlarning eng yuqori ko'rinishi, o'zining har bir a'zosining huquq va erkinliklari davlat tomonidan himoya qilinishi, himoya qilinishining muammosini qanchalik darajada hal qilinganligi bilan ifodalanadi.

Davlat jamiyat hayotidagi barcha ijtimoiy –iqtisodiy, siyosiy munosabatlari tartibga solib borish vazifasini amalgam oshirishda huquqiy vositalardan qanchalik mohirona foydalana olsa, jamiyat hayoti ham shunchalik erkin muhitga ega bo'ladi.

Shaxsning huquqiy holati asosan ikki mezon asosida belgilanadi.

Birinchi, shaxsning jamiyat aʼzosi sifatidagi munosabatlarida, ikkinchi, shaxsning muayyan davlat bilan yuzaga keladigan munosabatlar asosida.

Shaxs huquqiy holatini belgilovchi, yaʼni shaxsning tartibga solinishi jamiyatda amalda boʻlgan ijtimoiy normalar taʼsirida yuzaga keladi. Bunda urfodat, odob-axloq normalarining, jamiyatda mavjud va shakllanayotgan anʼanalarning alohida oʻrni mavjud. Shunga qaramay, ijtimoiy normalar shaxsning huquqiy holatiga salmoqli taʼsir oʻtkazmaydi.

Shaxs bilan davlat oʻtasidagi munosabatlar hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Davlat mavjud boʻlgan barcha huquq sohalarining vazifasim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan boʻlsada, eng asosiy tomonikonstitutsiyaviy huquq sohasi asosida shaxsning huquqiy holatiga maʼlum baho berish mumkin.

Shaxsning huquqiy holatiga taʼsir etuvchi qator omillar mavjudki, ular bevosita shaxsning jamiyat va davlat bilan boʻlgan munosabatlarida koʻrinadi.

Avvalambor shaxsning muayyan davlat bilan uzviy huquqiy munosabatda boʻlishi, yaʼni shu davlat fuqaroligiga ega boʻlishlikning oʻzi alohida huquqiy holatni belgilab beradi.

Fuqaroligi boʻlmagan, yaʼni hech bir davlat fuqaroligini olmagan shaxslarning huquqiy holati muayyan davlat alohida holatda boʻladi.

Ikki fuqarolikka yoki koʻp fuqarolikka ega boʻlgan shaxslarning huquqiy holati ham maʼlum munosabatlarda oʻzgacha holat kasb etadi. Demak, fuqarolik, fuqarolikka ega boʻlmashlik, koʻp fuqarolik masalalari shaxsning huquqiy holatiga taʼsir etuvchi omildir.

Ikkinchi, shaxsning huquqiy holatiga taʼsir etuvchi omillardan yana biri, shaxsning maʼlum yoshga toʻlishi va natijada muomala layoqatiga ega boʻlishi hisoblanadi.

Huquqiy layoqatga ega boʻlish ham alohida ahamiyat kasb etadi, yaʼni oʻz hatti-harakatiga ongli ravishda yondasha olishlik lozim.

Oʻzbekiston qonunlari bilan inson huquq va erkinliklarini davlat tomonidan qonuniy cheklashlarga qoʻyiladigan aniq talablar quyidagicha belgilangan:

faqat qonunga asoslanish;

boshqalarning huquq va erkinliklarini xurmatlash, axloq talablarini, demokratik jamiyatda jamoat tartibi va ijtimoiy farovonlik talablarini qondirish maqsadlarida amalgam oshirish.

Shu bilan birga huquq va erkinliklarni cheklashga favqulotda hollardagina yoʻl qoʻyiladi.

Oʻzbekiston gender tengligi koʻrsatkichi roʻyxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati boʻyicha Oʻzbekistonning gender tengligi koʻrsatkichi roʻyxatidagi 189 mamlakat ichida 62-oʻrinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamgʻarmasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga koʻra, Oʻzbekistondagi har

100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44, Qirg'iziston 82, Tojikiston 70-o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan.

O'zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

2015-yilda Pokiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tengligi va ayollarning huquqlarini kengaytirish bo'yicha bo'limi tomonidan hisobot tayyorlandi. Bu hisobot BMT-ayollar-deb tanilgan.

Hisobotning markaziy masalalaridan biri ayollarni ish bilan ta'minlash masalasi edi. Hisobot mualliflarining fikriga ko'ra, oliy ma'lumotli ayollar soni tarixiy maksimal darajaga yetganiga qaramay, ularning ish bilan ta'minlanish holati achinarli ko'rinishga ega. Universitetlarni imtiyozli diplom bilan tugatgan yosh qizlar, ayniqsa, tibbiyot va matematika kabi fanlardan yosh yigitlarni tobora ortda qoldirishlariga qaramay, ish topa olmaydilar. Hatto ish topishga muvaffaq bo'lganlar ham har doim ham ijtimoiy ishonchsizlik tufayli o'zlarini ishonchli his qila olmaydilar. Ushbu masala rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa dolzarb bo'lib, ularda ayollarning 75 foiz ish o'rinlari, ish beruvchi tomonidan qonuniy majburiyatlari himoyalanganini tashkil etadi.

Hisobotda ta'kidlanganidek, rivojlangan mamlakatlarda gender tengligi holati ham ideal darajadan uzoq emas. Masalan, Shvetsiya va Fransiyada ayollar erkaklarnikiga nisbatan maoshlaridagi farq 31 foizga kam, Germaniyada 49 foizga kamroq, Turkiyada esa 75 foizga teng. Hisobot mualliflarining fikriga ko'ra, gender tengsizligiga qarshi kurashning asosiy choralari butun dunyo bo'ylab ayollarni yaxshi ish joylari bilan ta'minlash huquqi kerak.

Xulosa. Gender tengligi va xotin-qizlar imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sohasidagi tizimli o'zgarishlarni ilgari surish uchun jamiyatda mustahkam o'rnashib olgan stereotiplar va me'yorlarni o'zgartirish maqsadga muvofiq.

Buning uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

huquqiy va ijtimoiy normalar va qoidalarni o'zgartirish;

ayollarning iqtisodiy va intellektual mustaqilligini oshirish;

ma'lumotlarni to'plash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish.

Loyihaning asosiy hamkori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi, Xotin-qizlar va oila masalalari qo‘mitasi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat statistika qo‘mitasi, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy qo‘mita, Ombudsman, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хусанов О.Т. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи // Дарслик – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2012. – 564 б.
2. Constitutional and Administrative Law / A. W. Bradley and K. D Ewing. 13th ed. 2003.
3. Harlow, England; New York: Longman, c20Erwin Chemerinsky. Constitutional Law: Principles and Policies. 4th Edition, May 25, 2011.
4. Christopher N. May, Allan Ides. Constitutional Law: National Power & Federalism. 5th Edition, 2012.
5. Allan Ides Christopher N. May Constitutional Law - Individual Rights. Fifth Edition 2012.
6. Sherman, Howard J. “Rise and Fall of the Soviet Union.” *International Journal of Political Economy*, vol. 24, no. 1, 1994, pp. 5–18. Available at www.jstor.org/stable/40470613.

